

MATEMATIKA FANLARINI O‘QITISHDA INTEGRATIV YONDASHUV METODIKASI

*Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani
50- maktab 1-toifali matematika fani o'qituvchisi
Qodirova Maxliyo Baxtiyorovna*

Annotatsiya: Hozirgi kunda ta'lim tizimida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar uning barcha turlariga ya'ni maktabgacha ta'limdan tortib, oliy kasb-hunar ta'limi, oliy ta'limda ham keng tarqalib bu esa intellektual va ma'naviy rivojlangan shaxsni shakllantirishning asosiy vazifasini qo'ydi.

Abstract: The fundamental changes that are taking place in the education system today are widespread in all its types, from pre-school education to higher vocational education and higher education, which is intellectual and spiritual. set the main task of forming a developed personality.

Tayanch so'zlar: ta'lim, integrativ, matematika, dastur, matematik tafakkur.

Key words: education, integrative, mathematics, program, mathematical thinking.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmonining ijtimoiy yo'nalishida amalga oshiriladigan muhim tadbirlar qatorida oliy ta'lim muassasalari uchun pedagoglarning yangi avlodini shakllantirish, ma'naviy axloqiy jihatdan yetuk, mustaqil dunyoqarashga ega, ijodiy fikrlovchi, boy milliy meros, shuningdek, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatli barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish vazifalari ham belgilab o'tilgan. O'qituvchilarning matematik tayyorgarligi samaradorligini oshirishda quyidagilar ahamiyatli hisoblanadi:

- bo'lajak o'qituvchining nazariy va uslubiy kompetentsiyasini shakllantirish maqsadida ta'lim jarayoni mazmunini birlashtirish;
- matematik tafakkur, mustaqillik va ijodkorlikni rivojlantirish;
- ta'limga integral yondashuvga asoslangan o'quvchilar faoliyati;
- integrativni loyihalash uchun maxsus texnologiyani qo'llash;
- uslubiy-matematik tayyorgarlik dasturlarini tuzishda o'quv fanlari mazmuni;
- modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish.

Matematika so'zi qadimgi grekcha - mathema so'zidan olingan bo'lib, uning ma'nosi «fanlarni bilish» demakdir. Matematika fanining o'rganadigan narsasi (obyekti) materiyadagi mavjud narsalarning fazoviy formalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlardan iborat.

Matematika o‘qitishning umumta’limiy maqsadi o‘z oldiga quyidagi 3 vazifalarni qo‘yadi:

1) O‘quvchilarga ma’lum bir dastur asosida matematik bilimlar tizimini berish. Bu bilimlar tizimi matematika fani to‘g‘risida o‘quvchilarga yetarli darajada ma’lumot berishi, ularni matematika fanining yuqori bo‘limlarini o‘rganishga tayyorlashi kerak. Bundan tashqari, dastur asosida o‘quvchilar o‘qish jarayonida olgan bilimlarining ishonchli ekanligini tekshira bilishga o‘rganishlari, ya’ni isbotlash va nazorat qilishning asosiy metodlarini egallashlari kerak.

2) O‘quvchilarning og‘zaki va yozma matematik bilimlarini tarkib toptirish. Matematikani o‘rganish o‘quvchilarning o‘z ona tillarida xatosiz so‘zlash, o‘z fikrini aniq, ravshan va lo‘nda qilib bayon eta bilish malakalarini o‘zlashtirishlariga yordam berishi kerak. Bu degani o‘quvchilarning har bir matematik qoidani o‘z ona tillarida to‘g‘ri gapira olishlariga erishish hamda ularni ana shu qoidaning matematik ifodasini formulalar yordamida to‘g‘ri yoza olish qobiliyatlarini atroflicha shakllantirish demakdir;

3) O‘quvchilarni matematik qonuniyatlar asosida real haqiqatlarni bilishga o‘rgatish. Bu yerda o‘quvchilarga real olamda yuz beradigan eng sodda hodisalardan tortib to murakkab hodisalargacha hammasining fazoviy formalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlarni tushunishga imkon beradigan hajmda bilimlar berish ko‘zda tutiladi.

Matematika metodikasi fani matematik ta’limning maqsadi, mazmuni, formasi, uslubi va uning vositalarini dars jarayoniga tadbqiqiy qonuniyatlarini o‘rganib keladi. Matematika fani fizika. chizmachilik, kimyo va astronomiya fanlari bilan ham uzviy aloqada bo‘ladi.

Matematika fanining boshqa fanlar bilan uzviy aloqasi quyidagi ikki yo‘l bilan amalga oshiriladi:

1) Matematika tizimining butunligini buzmaganda o‘qishni fanlarning dasturlarini moslashtirish.

2) Boshqa fanlarda matematika qonunlarini, formulalarini teoremlarni o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan materiallardan matematika kursida foydalanish. Hozirgi vaqtda matematika dasturini boshqa fanlar bilan moslashtirish masalasi ancha muvaffaqiyatli hal qilingan. Matematika darslarida boshqa fanlardan foydalanish masalasini dasturda aniq ko‘rsatish qiyin, buni o‘qituvchining o‘zi amalga oshiradi, ya’ni o‘quv materialini rejalashtirishda va darsga tayyorlanish vaqtida e’tiborga olishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. M. N. Boboyeva. Maktablarda “matematika” fanini o‘qitish va uni takomillashtirish istiqbollari. "Science and Education" Scientific Journal August 2021 / Volume 2 Issue 8.

2. Mardanova F.Ya., Rasulov T.H. Advantages and disadvantages of the method of working in small group in teaching higher mathematics // Academy. 55:4 (2020), pp. 65-68.
3. Расулов Т.Х. Инновационные технологии изучения темы линейные интегральные уравнения // Наука, техника и образование. 73:9 (2020), С. 74-76.
4. Alixonov S. «Matematika o‘qitish metodikasi». T., «O‘qituvchi» 1992 yil.
5. Alixonov S. « Matematika o‘qitish metodikasi » Qayta ishlangan II nashri. T., «O‘qituvchi» 1997 yil.